“O‘ZSUVLOYIHA” AJning 2024-yil yakunlari bo‘yicha moliyaviy-xo‘jalik faoliyati tashqi auditini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini tanlash bo‘yicha eng yaxshi takliflarni milliy buxgalteriya hisobi standartlariga (MBHS) muvofiq, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (XMHS) muvofiq, shuningdek, SMK, SIK va foiz qiymatlari hisob-kitoblarini tekshirish bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha eng yaxshi taklifларn tanlovini e’lon qiladi.

Tanlovda auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan berilgan litsenziyaga, sug‘urta polisiga, ega bo‘lgan, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo‘lgan korxonalarda tashqi audit o‘tkazishga ruxsat etilgan auditorlik tashkilotlari ro‘yxatiga kiritilganlar, auditorlik xizmatlari ko‘rsatish sohasida kamida 10 yil ish tajribasiga ega bo‘lganlar va korxonalar tomonidan salbiy munosabat bildirmaganlar ishtirok etishlari mumkin.

Tanlov natijalariga ko‘ra aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi auditorlik tashkilotini va audit o‘tkazish muddatlarini tasdiqlaydi.

Tanlov taklifida quyidagi hujjatlar bo‘lishi kerak:

-shartnomaning taklif qilingan shartlari ko'rsatilgan tanlovda qatnashish uchun ariza (vaqt, xizmatlar uchun maksimal to‘lov va boshqalar);

-davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, tegishli ishtirokchi litsenziyasi, malaka sertifikatlari va xodimlar uchun sertifikatlar nusxalari;

-kompaniya haqida ma’lumot;

-xalqaro buxgalteriya sertifikatiga (CIPA, ACCA, CPA yoki "ISA bo‘yicha audit" fanidan imtihonni o‘z ichiga olgan boshqa xalqaro buxgalteriya sertifikatlariga ega bo‘lgan auditorning mavjudligi;

-auditorlik sohasida kamida 10 yillik tajribaga ega bo‘lishi;

-kliring operatsiyalari va qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha mijozlar bilan o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini bilish;

Eng yaxshi takliflarni saralash tartibi: tanlovda ishtirok etish uchun talabgorlar xarid qilish hujjatlariga muvofiq https://etender.uzex.uz/365094 manziliga taklif yuborishlari kerak, unda: tanlov e’lonida ko‘rsatilgan ma’lumotlar. ; valyuta, to'lov tartibi va yetkazib berish shartlari to'g'risidagi ma'lumotlar; tanlovda ishtirok etish uchun takliflarni majburiy tayyorlashga qo‘yiladigan talablar; ishtirokchilarga tanlov uchun xarid hujjatlari qoidalariga tushuntirish berish tartibi, boshlanish va tugash sanalari; boshlang'ich bahosi, texnik shartlar, baholash mezonlari va takliflarni ko'rib chiqish tartibi va boshqalar.

Xizmatning taxminiy boshlang‘ich qiymati – 65 000 000 so‘mni tashkil etadi.

Tanlov hujjatlarining to‘liq versiyasi davlat xizmatlari portaliga biriktirilgan https://etender.uzex.uz/lot/365094

Aloqa telefonlari: 241-15-04, 241-48-30.

Elektronpochta: uzsuvloyiha@mail.ru

Veb-sayt: uzsuvloyiha.uz;

“O‘ZSUVLOYIHA” AJ ijrochi organ